

# «KUNDALIK ELEKTRON KUNDALIKNING VEB-VERSİYASINI KESHBEK ORQALI TO'LASH» AKSIYASI QOIDALARI

3 iyul 2023

Humans mobil ilovasida «**Kundalik elektron kundalikning veb-versiyasini keshbek orqali to'lash**» aksiyasi «Humans» Mas'uliyati cheklangan jamiyati, manzil: 100047, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Maxtumquli ko'chasi, 2 B, STIR 306624856 (Humans), Humans Sodiqlik Dasturi doirasidagi aksiyasi hisoblanadi.

## 1. Aksiya haqida ma'lumot

1.1 Ushbu Qoidalarning matnida bosh harf bilan foydalanilgan so'zlar atamalar hisoblanadi. Atamalarning ma'nosi Humans Sodiqlik Dasturi qoidalarida, [www.humans.uz](http://www.humans.uz) Saytida joylashtirilgan "Humans mahsulotlari va xizmatlari vitrinasi" servisidan foydalanish qoidalarida keltirilgan, agar ushbu Qoidalarda boshqa narsa nazarda tutilgan bo'lmasa.

1.2 Aksiya Ishtirokchilari – «Humans mahsulotlari va xizmatlari vitrinasi» servisidan foydalanuvchi, Humans mobil ilovasida bank kartasini bog'lagan jismoniy shaxslar, shuningdek Kundalik elektron kundalik xizmati foydalanuvchisi bo'lgan, Qoidalarning 2-bo'limda sanab o'tilgan amallarni bajargan jismoniy shaxslar mijozlardir.

1.3 Aksiya o'tkazilish hududi: O'zbekiston Respublikasi.

1.4 Aksiya o'tkazilish davri: 03.07.2023dan muddatsiz.

## 2. Akisya tavsifi

2.1 Aksiya o'tkazilishi vaqtida va ushbu Qoidalarga rioya qilgan holda Aksiya Ishtirokchilari Humans mobil ilovasida Rag'bat olish va Ishtirokchining Keshbek-hisobidagi mablag'i orqali Kundalik elektron kundalikning veb-versiyasi hamkor xizmatlarini 100% to'lash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

2.2 Aksiyada «Humans mahsulotlari va xizmatlari vitrinasi» servisining amaldagi Mijozlari hisoblangan, Humans tomonidan servisdan foydalanishi to'xtatib qo'yilmagan yoki tugatilmagan Ishtirokchilari ishtirok etishlari mumkin.

2.3 Aksiya o‘tkazilishi davrida kalendar yil davomida bitta Humans foydalanuvchisi uchun Kundalik elektron kundalik veb-versiyasining Ishtirokchisining Keshbek-hisobidagi mablag‘ orqali to‘loviga 80 000 so‘m miqdorda cheklov qo‘llaniladi.

### **3. Yakuniy qoidalar**

3.1 Ushbu Qoidalar Aksiya boshlangan paytdan boshlab kuchga kiradi. Humans bir tomonlama tartibda ushbu Qoidalarni o‘zgartirish, Aksiyani bekor qilish va bu haqida Humans Saytida tegishli xabarni joylashtirish orqali xabardor qilish huquqiga ega. Xabar berish sanasi tegishli ma'lumotlar Humans Saytida joylashtirilgan sana hisoblanadi. Humans Saytida tegishli ma'lumotlar e'lon qilingan paytdan boshlab Qoidalar o‘zgartirilgan deb hisoblanadi va Aksiya uzaytiriladi yoki bekor qilinadi.

3.2 Ishtirokchining Kundalik elektron kundalik servisi uchun Humans mobil ilovasida Ishtirokchining Keshbek hisobidagi mablag‘lar orqali to‘lovni amalga oshirishi jismoniy shaxslarga yo‘llangan taklif bo‘lgan Qoidalarning to‘liq va so‘zsiz qabul qilinishini anglatadi.